



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**2023-YILDA SAMARQAND
VILOYATIDA TURIZM VA DAM
OLISH RIVOJLANISHINING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

Samarqand viloyatiida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari



Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.

Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda ularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.

2023-yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


Turistik firma va tashkilotlarining hududlar bo'yicha soni, birl.



2023-yilda qabul qilinganlar soni, ming kishi




2023-yilda jo'natilganlar soni, ming kishi





2023-yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Hududlar bo'yicha sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, ming birlik



Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi


Jami 604 , ulardan:




2023-yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023-yil davomida Samarqand hududida **265** ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **93,2 %** ni mehmonxonalar, **0,7 %** ni motellar va **6,1 %** i boshqalarga to'g'ri keldi.

Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik




Hududlar bo'yicha mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar soni, birlik



Xonalar 6,1 ming nomerlar
12,8 ming o'rinlar


Tunab qolishlar soni 588,0 ming birlik



2023-yilda mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish muassasalarda shaxslarni joylashtirish


2023-yil davomida mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish muassasalarga **345,6 ming** kishi joylashtirildi, ulardan **40,6 %** ni O‘zbekiston fuqarolari, **24,4 %** ni MDH ga a‘zo davlatlar fuqarolari va **35,0 %** ni xorijiy davlatlar fuqarolari bo‘ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



2023-yilda mehmonxonalar va shunga o‘xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **205,7 ming** kishi ta‘til, bo‘sh vaqt va dam olish maqsadida, **74,9 ming** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadda, **5,5 ming** nafari do‘stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, **18,9 ming** nafari ziyorat qilish maqsadida, **3,0 ming** nafari davolovchi va sog‘lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **1,0 ming** nafari ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.


Sayohat maqsadi kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



2023-yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2023-yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari soni **34**tani tashkil etib, shundan **73,5 %** ni Nurobod tumanida, **8,8 %** ni Samarqand tumanida va **5,9 %** ni Samarqand shahrida faoliyat yuritmoqda.

Hududlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari soni, birlik




2023-yilda shaxslarni ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023-yil davomida **29,6 ming** kishi ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirildi, ulardan **91,5 %** ni O'zbekiston fuqarolari, **4,6 %** MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va **1,0 %** ni xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan shaxslardan **28,1 ming** kishi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **0,9 ming** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **0,3 ming** kishi ziyorat qilish maqsadida kelgan.

Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, *ming kishi*



2023-yilda individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023-yil davomida Samarqand hududida **42** ta individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **73,8 %** ni mehmon uylari, **7,1 %** ni dala hovli, **2,4 %** ni o'tov lagerlari va **6,2 %** boshqa turar joylar ulushiga to'g'ri keldi.

Individual joylashtirish muassasalari, birlik





Xonalar

0,2 ming xonalar
0,5 ming joylar

Tunab qolishlar 10,6 ming birl.

Hududlar bo'yicha individual joylashtirish muassasalari soni, birlik




*Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dala hovlilar

Samarqand hududida 2023-yilda eng ko'p individual turar joylar Samarqand shahri (35 ta), Qo'shrabot (3 ta) va Samarqand (2 ta) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

2023-yilda shaxslarni individual turar joylarga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2023-yil davomida individual turar joylarga **7,7 ming** kishi joylashtirildi, ulardan **57,1%** i O'zbekiston fuqarolari, **15,6%** i xorijiy davlatlar fuqarolari va **27,3%** i MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



Individual turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **7,7 ming** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **4,2 ming** nafari ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda, **0,01 ming** nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadlarda, **1,7 ming** nafari ziyorat qilish maqsadida kelgan.


Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi




2023- yilda boshqa joylashtirish muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023-yilda boshqa joylashtirish obyektlari soni **18** tani tashkil etib, ulardagi nomerlar (xonalar) **165** ta, joylar soni esa **442** tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha boshqa joylashtirish vositalari soni, *birl.*




Xonalar



2023-yilda boshqa turar joylarga shaxslarni joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2023-yil davomida **8,4 ming** kishi boshqa turar joylarga joylashtirildi, ulardan **42,9 %** i xorijiy davlatlar fuqarolari, **38,1 %** i va O'zbekiston fuqarolari, **19,0 %** i MDHga a'zo davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



Boshqa turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **5 060** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **130** nafari ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda, **65** nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, **272** nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish, **1 075** kishi ziyorat qilish maqsadida kelgan.

Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, kishi



Statistikaga oid eslatmalar

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o‘z ichiga oladi. Chiqish turizmi ko‘rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Turist – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, yoki kamida ma‘lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

Mehmon (ziyoratchi) – boshqa davlatga o‘z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko‘zlab kelgan shaxs.

Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do‘stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to‘ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g‘amxo‘rlik va boshqalar.

Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to‘lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o‘quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish, jumladan, pullik o‘qish, til o‘rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta‘tillar va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog‘lomlashtirish muolajalari – ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda resident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo‘lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.



Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi



e-mail: samvilstat@umail.uz



Manzil: 140100, Samarqand
sh., U.Tursunov ko'chasi, 82



www.samstat.uz



Tel.: +99866 235-33-16



facebook.com/samstataxborot